

TEMURIYLAR SALTANATI INQIROZINING BOSHLANISHIGA SABABCHI

MALIKA

Maftuna Bobomurodova

Toshkent davlat sharqshunoslik universiteti magistranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.13685387>

Annotatsiya. Ushbu maqolada Amir Temurning suyuqli nabiralaridan biri Xalil Sulton Mirzoning rafiqasi Shodmulk begimning qanday qilib Temuriylar saltanati inqirozi boshlanishiga sabab bo'lganligi hamda bu siyosiy inqirozning oqibatlari ko'rsatilgan. Maqolani yozishda Ibn Arabshoh va Sharafiddin Ali Yazdiy singari o'rta asr tarixchilari bergan qimmatli ma'lumotlarga tayanilgan.

Kalit so'zlar: Shodmulk begim, Xalil Sulton Mirzo, Ibn Arabshoh, "Zafarnoma", saltanat, temuriylar, adolat, inqiroz.

THE QUEEN WHO CAUSED THE CRISIS OF THE TIMURID KINGDOM

Abstract. This article shows how the wife of Khalil Sultan Mirza, one of the beloved grandsons of Amir Temur, Shodmulk Beg, caused the crisis of the Timurid kingdom and the consequences of this political crisis. In writing the article, valuable information provided by medieval historians such as Ibn Arabshah and Sharafuddin Ali Yazdi was relied upon.

Key words: Shodmulk Begum, Khalil Sultan Mirza, Ibn Arabshah, "Zafarnama", Sultanate, Timurids, justice, crisis.

ЦАРИЦА, ВЫЗВАВШАЯ КРИЗИС ЦАРСТВА ТИМУРИДОВ

Аннотация. В данной статье показано, как жена Халила Султан-Мирзы, одного из любимых внуков Амира Темура, Шодмулк-бек, стала причиной кризиса Тимуридского царства и последствий этого политического кризиса. При написании статьи использовалась ценная информация, предоставленная средневековыми историками, такими как Ибн Арабшах и Шарафуддин Али Йезди.

Ключевые слова: Шодмулк Бегум, Халил Султан Мирза, Ибн Арабшах, «Зафарнама», Султанат, Тимуриды, справедливость, кризис.

Tarixchi Sharafiddin Ali Yazdiyning yozishicha, Shodmulk хотун Samarqand shahrining quyi tabaqasiga mansub hunarmand oilasida dunyosiga kelgan. Amir Temurning suyuqli nabirasi Xalil Sulton Mirzo kunlardan bir kun shahar chetidagi bog' ko'chasidan otda o'tib ketayotib, Shodmulkka ko'zi tushadi va uni sevib qoladi. Bu ma'lumot turli manbalarda turlicha keltiriladi.

Bir qancha rivoyatlar ham shu kungacha yetib kelgan¹.

“Amir Temur va Temuriylar davlatida ayollarga munosabat juda yuqori, e’tiborga molik darajada bo‘lgan desak mubolag‘a bo‘lmaydi. Chunki bunga sabab o‘sha davrdagi ayollarning ham oqilaligi va ilmliligi hamdir. Lekin shu bilan bir qatorda Amir Temur va Temuriylar tarixini o‘rganish jarayonida tarixda salbiy iz qoldirgan malikalarni ham uchratishimiz mumkin. Ana shulardan biri, albatta, sohibqiron Amir Temur bobomiz tan olmagan malika Shodmulk begim, ya’ni Amir Temurning nabirasi Xalil Sultonning nikohiga kirgan malikaning hayoti bunga misol bo‘la oladi” – deydi Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi Komiljon Sultonov.

Shodmulk begim tarixda salbiy nom qoldirishiga asosiy sabab sohibqiron Amir Temur tomonidan 35 yil davomida tuzilgan va mustahkamlangan imperiyaning sohibqiron vafotidan so‘ng, birdaniga parchalanib ketishiga sababchi bo‘lganidir. Ma’lumki, Amir Temur ko‘pgina mamlakatlarga harbiy yurishlar amalga oshirganida ko‘p yurtlarning obod bo‘lishiga hissa qo‘shgan. Jumladan, sohibqironning Ozarbayjonga qilgan harbiy yurishlaridan so‘ng, u yerga tayinlangan noib Shayx Ibrohim Amir Temurga hududni boshqarishida juda katta yordam beradi.

Hattoki sohibqironning farzandi Mironshoh Mirzoning ko‘pgina nojo‘ya xatti-harakatlarini tuzatish va uni berilgan hududlarni to‘g‘ri idora etishga undaydi. Manbalarda keltirilishicha, Mironshoh Mirzoning farzandi Xalil Sultonning rafiqasi Shodmulk begim ham aynan mana shu Shayx Ibrohimning nikohsiz tug‘ilgan farzandi hisoblanadi.

Xalil Sulton Mirzo jasoratli, harbiy salohiyatli va iste’dodli yigit bo‘lgan. Balog‘atga yetgach, uni aslzoda xonadon farzandiga uylantirishgan, undan bir o‘g‘il ham ko‘rgan. Ammo Shodmulkni sevib qolgach, o‘z zamonasining taomiliga qaramasdan shu qizga uylanadi. Ba’zi manbalarda amir Sayfiddining joriyalaridan biri bo‘lgan Shodmulk Saroymulkxonimning xizmatida ham bo‘lgan deyiladi. Boshqa manbalarda esa Shayx Ibrohim Shodmulk nikohsiz tug‘ilganidan so‘ng, bu sir ommaga oshkor bo‘lmasligi uchun uni Darbandga jo‘natib yuborgani yozilgan. O‘sha davrda Oltin O‘rda hukmdori To‘xtamishxon Darbandga yurish qilib, ko‘pgina asirlar qatorida Shodmulkni ham onasi bilan Hoji Tarxon (hozirgi Rossiyadagi Astraxan shahri) shahriga olib ketadi. 1395-yili Amir Temurning Terek daryosi bo‘yida To‘xtamishxon ustidan qozongan g‘alabasi natijasida Oltin O‘rda poytaxti vayron etiladi. Shahardagi o‘ljalarning bir qismi Amir Temurning ishonchli amirlaridan biri amir Sayfiddinga beriladi. Bularning ichida Shodmulk va uning onasi ham bor edi. O‘sha davrda yosh va go‘zal bo‘lgan Shodmulkni amir Sayfiddin o‘z haramiga olgan.

¹ Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, “Sharq” – 1997.

“Sohibqiron Amir Temurning 1398-1399-yillarda Hindistonga amalga oshirgan harbiy yurishida 15 yoshli nabirasi Xalil Sulton Mirzoning tadbirlari ham yaxshi natija beradi. Harbiy yurishdan Samarqandga qaytgan, Xalil Sulton Mirzo o‘zini tarbiyalagan oliy malika Bibixonimning huzuriga kirish uchun Bog‘i Dilkushoga ketayotgan paytda Shodmulkka ko‘zi tushgan va uni yoqtirib qolgan. Xalil Sulton uni surishtirganda bobosi qo‘l ostidagi amir Sayfiddinning joriyasi ekanligi ma‘lum bo‘ladi. Shundan so‘ng Xalil Sulton uni o‘z nikohiga olmoqchi ekanligi to‘g‘risida Bibixonim bilan maslahatlashadi. Tabiatan juda ham dilkash, shaddod va husnda ham tengsiz bo‘lgan Shodmulk Xalil Sultonni bir ko‘rishdayoq o‘ziga rom qilgan. Biroq Bibixonim Shodmulkning nasl-nasabi Xalil Sultonnikidan past ekanligini hisobga olib o‘zi parvarish qilgan nabirasiga buday qilmaslikni maslahat bergan. Lekin Xalil Sulton fikrida qat‘iyat bilan turib Shodmulkni yashiricha nikohiga oladi” – deydi Temuriylar tarixi davlat muzeyi ilmiy xodimi Dilorom Yo‘lchiyeva. Amir Temur bu nikohga boshidanoq qarshi turgan bo‘lsa-da, suyuqli nabirasiga mehri tufayli uning bu gunohini kechiradi. Buning yana bir sababi, Saroymulxonim oraga tushib Amir Temur tomonidan o‘limga hukm qilingan Shodmulkning hayotini asrab qolganligidir. Saroymulxonim amir Sayfiddinga odam yuborib, Shohrux Mirzoning farzandi Mirzo Ulug‘bek tarbiyasini Shodmulkka ishonib topshirmoqchi ekanligini aytadi.

Bibixonim aralashuvi tufayli oliy jazodan qutilib qolgan Shodmulkka sohibqironning nafraticheksiz bo‘lgan. Negaki, sohibqiron tabiatan oilaparvar va kelinlikka tanlangan har bir nomzodning nasl-nasabi, xulq-odobi va ilm-u saloyihatiga alohida e‘tibor bilan qaragan zamonda Shodmulkdek joriyaning uning sgarafli xonadoniga kelin bo‘lishi, albatta, quvonarli holat emasdi.

Amir Temur suyuqli nabirasining nasl-nasabi past Shodmulk bilan ko‘p turmush kechirmasligini istaydi, shuning uchun doimo Xalil Sultonni harbiy yurishlariga birga olib ketadi.

Amir Temur vafotidan so‘ng, 1405-yil 18-mart sanasida Xalil Sulton Mirzo Samarqand taxtiga o‘tiradi. U saltanatni boshqarishda adolatni bosh mezon qilib, mamlakat ichki va tashqi ahvolini yaxshilash choralari izlaydi. Amir Temur vafotidan so‘ng turli bek-u boyonlar o‘zlariga mos shahzodalarni taxtga chiqarishni istayotgan bir zamonda Xalil Sulton bobosining “Kuch – adolatda” mezoniga amal qiladi. Bobosining vafoti Xalil Sultonga tom ma‘noda siyosiy va ma‘naviy erkinlik beradi, chunki bobosi tiriklik vaqtida uning Shodmulk begim bilan nikohiga qattiq qarshilik qilgan edi. Xalil Sulton ona tomondan chingiziyarga borib taqalishiga qaramasdan, taxtga Muhammad Sultonning 9 yoshli o‘g‘li Muhammad Jahongirni o‘tqazib davlatni uning nomidan idora etishga urindi.

Bunga asosiy sabab temuriy amirzodalar ichida yoshi kattaroq bo‘lishi emas (Pirmuhammad Mirzo, Mironshoh Mirzo va Shohrux Mirzolar Xalil Sultondan katta bo‘lishgan),

balki Shodmulk begimga bo'lgan cheksiz muhabbati edi. Amir Temur vafotidan oldin boshqa bir nabirasi – Pirmuhammad Mirzoni valiahd etib tayinlashiga qaramasdan, Xalil Sulton darhol samarqandga yetib kelib bobosidan qolgan xazinalar vositasida sohibqironning nufuzli amirlari va sarkardalarini Pirmuhammad Mirzoga qarshi o'z atrofida birlashtirishga erishadi. Xalil Sultonning xotini Shodmulk begimning saltanat ishlariga faol aralashuvi natijasi o'laroq, arkoni davlat orasida ayrim noroziliklarning kelib chiqishiga sabab bo'ladi.

Shodmulk begim Temurning barcha beva xotinlari-yu xos kanizaklarini harbiy boshliqlar va amaldorlarga in'om qilish haqida Xalil Sulton Mirzoga maslahat berib, uni ko'ndiradi.

Jumladan, 1406-yilda sohibqiron Amir Temurning beva xotini Tuman Og'o begimni amir Shayx Nuriddinga xotinlikka beradi. Ibn Arabshohning yozishicha, 1408-yili Saroy Mulk xonim bilan Tukul xonimlarni Shodmulk begimning maxfiy buyrug'iga binoan zaharlab o'ldirganlar².

Chunki bu nufuzli malikalar ichki saroyini qo'lga olishda va nufuzli amirlarni o'ziga itoat ettirishda Shodmulk begimga xalaqit berayotgan edi. Xalil Sulton davrida (1405-1409) Amir Temur davridagi bek va amaldorlarga yetarli iltifot ham ko'rsatilmaydi. Xazina va saltanat ishlarida Shodmulk begimning faoliyati battar kuchayadi. Shodmulk begimning xohish-irodasi ila quyi tabaqaga mansub kishilar yuqori lavozimlarga ko'tariladi. Temur safdoshlariga qarama-qarshi o'laroq, Shodmulk begimning xohishiga muvofiq, qandaydir Bobo Turmush degan kimsa to'la huquqli vazirlik mansabini egallaydi. Avvalgi amaldorlardan Oллоhdod va Arg'unshohlarga ham hech qanday rag'bat bo'lmaydi³.

Arkoni davlat o'rtasida vujudga kelgan bunday nobarobarlik saltanat poydevoriga rahna solishi muqarrar edi. Zotan, ana shunday qulay vaziyat Shohruh Mirzo uchun asqotdi. 1409-yil bahorida Shohruh Mirzo qo'shini Bodxez mavzeiga kelib to'xtaydi. Xalil Sulton Mirzoning qo'shini esa Shahrisabzda jangga tayyor holda turardi. Shu asnoda shimolda amir Xudaydod boshchiligida qo'zg'olon ko'tarilgani xaqida xabar qeladi. Xalil Sulton Mirzo asosiy qo'shinni Shahrisabzda qoldirib, 4000 askar bilan amir Xudaydodga qarshi borishga majbur bo'ladi. 1409-yil 30-mart kuni Xalil Sulton Mirzo amir Xudaydod tomonidan asirga olinib, Samarqandga keltiriladi va keyinchalik Farg'onaga olib ketiladi. Uning xotini Shodmulk begimni esa Shohruh Mirzoga topshiradilar. Ayrim ma'lumotlarga qaraganda, Shohruh Mirzo Shodmulk begimni tahqirlab, ko'p azob-uqubatlarga duchor qiladi.

Nihoyat, Xalil Sulton Mirzoni Farg'onadan O'troga keltirib, amir Shayx Nuriddin vositachiligida Shohruh Mirzo bilan Xalil Sulton Mirzo o'rtasida bitim tuziladi. Bitimga muvofiq,

² Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. Toshkent, "Mehnat" – 1992.

³ <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/temuriy-malikalar/shodmulk-xotun>

Xalil Sulton Mirzo Movarounnahr hukmronligidan voz kechadi. Buning evaziga Ray viloyatining hokimi etib tayinlanadi. Xotini Shodmulk begim qaytarib beriladi. Ko‘p o‘tmay, 1411-yil 4-noyabr chorshanba kuni Xalil Sulton Mirzo Ray shahrida betob bo‘lib, vafot etadi.

Ayrim ma‘lumotlarga qaraganda, u zaharlanib o‘ladi. Shundan so‘ng 1411-yilning oxirida eridan keyin yashashni istamagan Shodmulk begim zahar ichib olamdan o‘tadi⁴.

REFERENCES

1. Ibn Arabshoh. Ajoyib al-maqdur fi tarixi Taymur. Toshkent, “Mehnat” – 1992.
2. T.Fayziyev. Temuriy malikalar. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.
3. Sharafiddin Ali Yazdiy. Zafarnoma. Toshkent, “Sharq” – 1997.
4. <https://n.ziyouz.com/portal-haqida/xarita/tarix/temuriy-malikalar/shodmulk-xotun>

⁴ T.Fayziyev. Temuriy malikalar. A.Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 1994.